



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№12



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdulkarimova Dinara Rustamxanovna

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Abdulkarimova Dinara Rustamkhanovna

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....	44
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQISH.....	48
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
"INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	53
Turayeva Gulizahro	
АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИСЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....	57
Баҳриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли	
KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....	62
G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI.....	67
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich	
INNOVASION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	73
Mustafoev Akbar Mustafo o'g'li	
MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI.....	78
Maxkamov Ibrayim, Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ROLI.....	83
Abduxalilova Laylo To'xtasinovna, Raxmonqulova Shahrizoda	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA YOPIQ SIKL NAZARIYASINING ROLI.....	87
Sodikov Zokir Rustamovich	
YASHIL TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA MOLIYAVIY RAG'BATLAR VA ULARNING NATIJALARI.....	92
Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	97
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	
АНАЛИЗ ПОДХОДОВ ЦЕНТРАЛЬНЫХ БАНКОВ К РЕГУЛИРОВАНИЮ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ ПРОДУКТОВ: СРАВНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКИ.....	101
Даулетиярова Шахло	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ УЗБЕКИСТАНА.....	109
Кадилова Хадича Тураевна	
XORIY MAMLAKATLARINING IQTISODIYOTNI UGLERODSIZLASHTIRISH STRATEGIYALARI: O'ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR.....	115
D.X. Pulatov, F.E.Shamsiyev	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	125
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
HISOB SIYOSATI TARKIBIY TUZILISHI MASALALARI.....	133
Botirova Raximaxon Abdujabbarovna	
QURILISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MOLIYAVIY TAHLILI.....	136
Musayeva Shoirazimovna	



KICHIK SANOAT ZONALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH.....	144
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI PORTFELI TAHLILI.....	149
Madraximov Ilxom Kamilovich	
FOYDA SOLIG'INING O'ZIGA XOS MUAMMOLI JIHATLARI.....	154
Zaripov Xusan Baxodirovich	
AGRAR SEKTORNI INNOVATSION MODERNIZATSIYA QILISHDA INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISH MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	159
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	163
Jalilov Jamshid G'anijonovich, Safarov Zavqiddin Zokir o'g'li	
MINTAQA SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	168
Xayitboev Abror Quvondiqovich	
РОЛЬ СМЕШАННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ (BLENDED FINANCE) В ПОВЫШЕНИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ КОММУНАЛЬНЫХ УСЛУГ: УРОКИ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН.....	174
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KORXONALARDA STRATEGIK BOSHQARUV.....	180
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
BANK TIZIMIDA MARKETING AHAMIYATI VA BANK MARKETINGI.....	184
Usubjonov Zaxriddin Vasliddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN XORJIY KREDIT MABLAG'LARINI JALB KILISH HUQUQIY JIHATLARI.....	189
Qulliyev Anvar Zayniddinovich	
TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA CHAKANA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	194
Alimov Umid O'ktambayevich	
MAHSULOTLARNING RAQAMLI PASPORTI TIZIMINI JORIY ETISH OMILLARI VA TO'SIQLARI.....	200
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
KORXONALARDA FOYDA VA ZARARLARNI TAHLIL QILISHDA INNOVATSION METODLAR AHAMIYATI.....	207
Ernazarov Ortiq Eshnazarovich, Farog'at Xo'jabekova	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ БЛАГОСОСТОЯНИЕ, А ТАКЖЕ НОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ.....	212
Останов Эгамберди	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVASION TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYALASH: MOHIYATI VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI.....	218
Xakimova Xulkar Xamidovna	
QORAQALPOG'ISTON VA XORAZM OZIQ-OVQAT SANOATINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI HAMDA UNI YANADA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	224
Tleuov Niyetulla Raxmanovich	
OILAVIY KORXONALARNING IQTISODIY TIZIMDAGI O'RNI.....	230
Shadiyeva Gulnora Mardiyevna, Rustamova Zarina Rustamovna	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATINI MODELLASHTIRISH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARI.....	234
Sadikov Shoxrux Shuxratovich	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA RAQAMLI XIZMATLARNING AHAMIYATI.....	238
Asenbaeva Aydaygul Edenbaevna	
BARQARORLIK VA YASHIL MENEJMENT: ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR VA AMALIY AHAMIYATI.....	242
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	



HUDUDLARNING IQTISODIY SALOHİYATINI INNAVATSION-INVESTITSION BOSHQARISH STRATEGIYASI VA MEXANIZMI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	247
Maqsudova Malohatxon Maqsudovna, Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETINI 2026-YILGI SOLIQ SIYOSATINING TAHLILI VA XALQARO SOLISHTIRMA YONDASHUVI	251
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI	256
Mamataliyeva Dilnoza Raxmonovna	
TRANSFORMATSIYALASHUV SHAROITIDA INVESTITSİYALAR SHAKLLANISHI VA ULARNI SAMARALI BOSHQARISH YO'NALISHLARI	259
To'rayev Jasurali To'rayevich	
O'ZBEKISTONDA SAVDO TASHKILOTLARINING FAOLIYATI VA RIVOJLANISH HOLATI	264
B. Sulaymonov	
NAMANGAN VILOYATIDA "YASHIL IQTISODIYOT" MODELIGA O'TISH JARAYONIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY FAOLLIGI	270
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	274
Xoshimov Pazliddin Zuxurovich	



O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Xoshimov Pazliddin Zuxurovich

O'zbekiston Milliy universiteti
Iqtisodiyot fakulteti professori

Annotatsiya. Butun bizning planetamiz insoniyati uchun global iqtisodiy va ijtimoiy masalalarga bog'liq holda ekologik muammolar muhim hisoblanadi. 1980-yillarda xalqaro tashkilotlar tomonidan barqaror rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqish va uni kelajakda amalga oshirish bo'yicha urinishlar bo'lgan. Parij kelishuvi doirasida O'zbekiston boshqa davlatlar singari iqlim o'zgarishlari oqibatlariga moslashish bo'yicha hamkorlikda ishlarni amalga oshirishga oid mas'uliyatni qabul qilib, 2019–2030-yillar davrida mamlakatni "yashil" iqtisodiyotga o'tkazishni qonuniy darajada mustahkamladi.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, "yashil" iqtisodiyot, "yashil" texnologiyalar, innovatsiyalar, iqtisodiy o'sish, iqlim o'zgarishi.

Abstract. Environmental issues have become critically important for humanity, as they are closely linked to global economic and social challenges. In the 1980s, international organizations made attempts to develop the concept of sustainable development and outline its future implementation. Within the framework of the Paris Agreement, Uzbekistan, like other countries, accepted responsibility for taking joint action to adapt to the consequences of climate change and legally consolidated the transition of the country to a "green" economy for the period 2019–2030.

Key words: sustainable development, green economy, green technologies, innovations, economic growth, climate change.

Аннотация. Важным для человечества всей нашей планеты признаются глобальные экологические проблемы во взаимосвязи с экономическими и социальными вопросами. В 1980-е годы международными организациями предпринимались шаги по разработке концепции устойчивого развития и дальнейшей её реализации. В рамках Парижского соглашения Узбекистан, как и другие страны принял на себя обязательства по осуществлению совместной работы по адаптации к последствиям изменения климата, закрепив на законодательном уровне переход страны на «зеленую» экономику на период 2019 – 2030 годы.

Ключевые слова: устойчивое развитие, «зеленая» экономика, «зеленые» технологии, инновации, экономический рост, изменение климата.

KIRISH

Ma'lumki, 2015-yilning oxirida Parijda BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy Konvensiyasi tomonlarining XXI konferensiyasi bo'lib o'tdi va uning natijalariga ko'ra 196 mamlakat Parij bitimini imzoladi. Ushbu kelishuv iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, global tahdidlar sharoitida barqaror rivojlanish va qashshoqlikni kamaytirish vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan. Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash bo'yicha aniq chora-tadbirlar mamlakatlar hukumatlari tomonidan "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish va unga o'tish bo'yicha tartibga soluvchi qonunchilikni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishga yo'naltirilishi lozim.

Davlatlar "jigarrang" iqtisodiyotdan past uglerodli iqtisodiy rivojlanish modeliga o'tish bo'yicha milliy strategiyalarini qayta ko'rib chiqishlari zarur, bunda tabiiy resurslarni qazib olish, qayta ishlash va ulardan foydalanishning an'anaviy texnologiyalari "yashil" texnologiyalar foydasiga bosqichma-bosqich bekor qilinadi.

"Yashil" iqtisodiyotga o'tish jamiyatning barqaror rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, hozirgi avlod ehtiyojlarini kelajak avlodga zarar yetkazmasdan qondirish imkonini beradi. Global miqyosda barqaror rivojlanish konsepsiyasi ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni birlashtiradi.



O'zbekiston uchun "yashil" iqtisodiyotga o'tish iqtisodiyotni qo'shilgan qiymat zanjiri bo'yicha modernizatsiya qilish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va turli ijtimoiy guruhlarning muvozanatli o'sishiga erishish imkoniyatini yaratadi. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish konsepsiyasini amalga oshirish uchun O'zbekiston qator normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qildi, jumladan:

- 2030-yilgacha "yashil" iqtisodiyotga o'tish Strategiyasi tasdiqlandi;
- mazkur yo'nalishdagi islohotlar samaradorligi bo'yicha chora-tadbirlar kengaytirildi;
- "yashil" iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlari va tarmoqlari belgilandi;
- "yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlari ishlab chiqilmoqda;
- BMTTD (PROON) ko'magida "yashil" iqtisodiyotga o'tish imkoniyatlarini o'rganish uchun kelajak va prognozlash vositalari qo'llanildi;
- "yashil" faoliyat turlarini tasniflash uchun Milliy "yashil" taksonomiya ishlab chiqildi.

BMTTD xalqaro futurologlar jamoasi bilan birgalikda sohaning mavzu xaritasi ishlab chiqildi hamda BMTTD vakillari va O'zbekiston Hukumatini o'z ichiga olgan mahalliy mutaxassislar tomonidan yangilandi¹.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Yashil" iqtisodiyot bo'yicha zamonaviy ilmiy tadqiqotlar atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan samarali foydalanish va past uglerodli rivojlanishning global konsepsiyasini izchil asoslab bermoqda. BMT Atrof-muhit dasturi tomonidan ilgari surilgan "Green Economy" konsepsiyasi barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy komponentlarini uyg'unlashtirgan holda mamlakatlarning yashil o'sishga o'tishida asosiy yo'nalishlarni belgilaydi. Joseph Stiglitz va Nicholas Stern tomonidan olib borilgan tadqiqotlar uglerod chiqindilarini kamaytirishning makroiqtisodiy samaralarini chuqur tahlil qiladi, unda ekologik toza texnologiyalarga o'tish iqtisodiyotning uzoq muddatli raqobatbardoshligini oshirishi isbotlangan. Stern Review hisobotida iqtisodiyotni dekarbonizatsiya qilish bo'yicha investitsiyalarni kechiktirish kelajakda ancha yuqori ijtimoiy xarajatlarni keltirib chiqarishi qayd etiladi.

OECD ekspertlari, xususan, Dirk Vermeulen va Nathalie Girouard tomonidan olib borilgan izlanishlarda yashil iqtisodiyotga o'tish uchun moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish, ekologik soliq islohoti va yashil obligatsiyalar bozorini rivojlantirish muhim omil sifatida ko'rsatiladi. Xususan, xalqaro tajribada uglerod solig'i va emissiya savdosi tizimlari korxonalarning energiya samaradorligini oshirishga kuchli rag'bat uyg'otgani aniqlangan. Michael Porter tomonidan ishlab chiqilgan "Porter gipotezasi"ga ko'ra, ekologik talablarning kuchaytirilishi sanoatni innovatsiyalarga majbur qiladi, bu esa korxonalarning tannarxni optimallashtirish va raqobat ustunliklarini shakllantirishiga olib keladi. Yevropa Ittifoqining "Green Deal" strategiyasi bo'yicha Luigi Paganetto kabi iqtisodchilar tomonidan amalga oshirilgan tahlillar ham ekologik me'yorlarning iqtisodiy o'sish bilan zid emasligini, aksincha, yashil texnologiyalar eksportini kuchaytirishini isbotlaydi.

Markaziy Osiyo mintaqasida AKIS tizimlari, suv resurslarining yetishmasligi va ekologik yukning yuqoriligi sababli yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish masalasi alohida ahamiyatga ega. Jahon banki va FAO tadqiqotlari O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmanistonda suvni tejovchi texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energetika va organik dehqonchilikni joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Xalqaro Energetika Agentligi tadqiqotlarida energiya samaradorligini oshirish eng arzon iqlim yechimi hisoblanib, gaz va elektr energiyasi iste'molini optimallashtirish milliy iqtisodiyotlar uchun sezilarli darajada foyda keltirishi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, Jeffrey Sachs tomonidan ishlab chiqilgan barqaror rivojlanish modeli ekologik infratuzilmaga, "yashil" transport tarmoqlariga va resurslarni qayta ishlash quvvatlariga sarmoya kiritish barqaror o'sishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Mahalliy tadqiqotlarda ham ushbu yo'nalishning ahamiyati yoritilgan. Abdurahmonov Q.X., Kalandarov R.A. va Soliyev A.S. tomonidan O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot" modeli bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda qayta tiklanuvchi energiya, ekologik toza ishlab chiqarish va resurs sarfini kamaytirish bo'yicha istiqbolli yo'nalishlar tahlil qilingan. O'zbekiston bo'yicha xalqaro tashkilotlar, jumladan UNDP tomonidan tayyorlangan "Green Economy Transition" hisobotida yashil texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni boshqarish tizimini modernizatsiya qilish, xususiyl sektorni jalb etish hamda yashil moliyalash instrumentlarini kengaytirish zarurligi ta'kidlanadi.

Ushbu ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya ulushini kengaytirish, resurslardan oqilona foydalanish, ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirish, yashil moliyaviy mexanizmlarni kuchaytirish va jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirish kabi kompleks chora-tadbirlarni qamrab oladi. Xalqaro va milliy miqyosdagi tadqiqotlar ushbu transformatsiya iqtisodiyotning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashini iqtisodiy dalillar bilan asoslab beradi.

¹ Tarli manbalar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida birlamchi va ikkilamchi manbalar asosida ma'lumotlar yig'ildi, bunda xalqaro tashkilotlar hisobotlari, statistik bazalar va ilmiy nashrlar tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar taqqoslama va trend tahlili orqali qayta ishlanib, "yashil" iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha mavjud holat va rivojlanish tendensiyalarini aniqlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonning "yashil" iqtisodiyotga o'tish xaritasi atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan oqilona foydalanish va barqaror iqtisodiy modelni shakllantirishga qaratilgan bir qator ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Atrof-muhit yo'nalishida chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish, qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish, suv resurslarining ifloslanishiga qarshi kurashish va asossiz suv sarfini qisqartirishga alohida e'tibor qaratiladi. Transportning ekologik talablarga moslashtirilishi, qurilish sohasida barqaror me'yorlarni joriy etish, yashil maydonlarni kengaytirish, biologik xilma-xillikning kamayishini oldini olish hamda havoning ifloslanishini pasaytirish ushbu yo'nalishning asosiy vazifalaridan sanaladi. Bu jarayonlar aholining sog'lom yashash muhitiga bo'lgan talablarini qondirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va turmush sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Energetika, tabiiy resurslar va iqlim yo'nalishida energiya narxlarining arzonligi sababli iste'mol samaradorligini oshirish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Tabaqalashtirilgan tariflar tizimini optimallashtirish, atom energetikasini rivojlantirish rejalari, quyosh, shamol va geotermal energiya loyihalarini kengaytirish orqali energiya ishlab chiqarishda uglerodsiz modelga o'tish ko'zda tutiladi. Shuningdek, organik dehqonchilikni rivojlantirish va changli iqlim sharoitida barqaror yechimlarni topish muhim yo'nalishlar sifatida belgilanadi. Resurslarni qayta tiklash, yoqilg'i sarfini kamaytirish, ekologik toza energiya ulushini oshirish iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatishga yordam beradi.

Mavjud sanoat obyektlarini modernizatsiya qilish, uglerodni olib tashlash texnologiyalarini joriy etish, standartlashtirish va sertifikatlash tizimlarini takomillashtirish, malaka va ko'nikmalarni oshirish bu borada muhim vazifalardan hisoblanadi. Zaryadlash stansiyalari, batareyalarni saqlash va utilizatsiya qilish kabi "yashil" infratuzilma tarmoqlarini kengaytirish ekologik toza texnologiyalarni ommalashtirishga xizmat qiladi.

Moliyaviy-iqtisodiy asosni mustahkamlashda moliyaviy xatarlarni kamaytirish, aholining sotib olish qobiliyatini oshirish, iqtisodiyot uchun zarar va foyda o'rtasidagi optimal muvozanatni topish muhim ahamiyatga ega. Xususiy sektorni jarayonga faol jalb qilish, investitsiyalarni energetika, qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohaslariga yo'naltirish "yashil" iqtisodiyotning moliyaviy poydevorini mustahkamlaydi. Rag'batlantiruvchi imtiyozlar, "yashil" belgilash tizimlari va raqamlashtirish jarayonini chuqurlashtirish iqtisodiy samaradorlikni yanada oshiradi.

Ijtimoiy asosda "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayoni an'anaviy sektorlarda ish o'rinlarining qisqarishiga olib kelishi mumkin, shu bois aholini qayta tayyorlash va yangi kompetensiyalarni egallashga yo'naltirilgan tizimli yondashuv zarur bo'ladi. Inson ongini o'zgartirish, ekologik madaniyatni oshirish, oqilona iste'molni targ'ib etish, chiqindilarni saralash va utilizatsiya qilish odatlarini shakllantirish ushbu yo'nalishning ajralmas bo'limlaridan biriga aylanadi. Aholining ekologik tashabbuslarda faol ishtirok etishi, jamiyatning "yashil" iqtisodiyotga tayyorligini oshirish barqaror o'zgarishlarning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Me'yoriy-huquqiy asosni rivojlantirish jarayonida "yashil" ustuvorliklarni qonunchilikda mustahkamlash, samarali ijro mexanizmlarini yaratish, jarima va jazolar tizimini takomillashtirish, rag'batlantiruvchi me'yorlarni kengaytirish zarur. Texnik tartibga solish, sifat kafolati va standartlashtirish tizimlari orqali "yashil" texnologiyalarni keng qo'llash uchun qulay huquqiy sharoit yaratiladi.

"Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasi davlat tomonidan bilimlarni tarqatish, tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, uglerod chiqindilarini kamaytirishga yordam beruvchi "yashil" ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuvni o'z ichiga oladi. "Yashil" texnologiyalar asosida iqtisodiyotda yangi yo'nalishlar, yangi ish o'rinlari paydo bo'lib, xom ashyoni qayta ishlash tannarxni kamaytiradi, foydani oshiradi, mehnat resurslari uchun ijtimoiy rag'batlarni kuchaytiradi. Bu esa bandlik darajasining oshishiga, kambag'allikning kamayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Energiya samaradorligini oshirish yoqilg'iga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi, chiqindilarni minimallashtiradi va tabiiy resurslarning tiklanishiga xizmat qiladi. Resurslardan oqilona foydalanish esa chiqindilarni kamaytirish, atrof-muhitning ifloslanishini pasaytirish, biologik xilma-xillikni saqlash va ekotizim xizmatlarini rivojlantirishga olib keladi. Organik uy xo'jaliklarini rivojlantirish ekologik xavfsiz oziq-ovqat ishlab chiqarishni kengaytiradi.

O'zbekiston Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan bo'lib, suv resurslari tanqisligi bilan bog'liq jiddiy muammolarga duch kelmoqda. Jahon resurslari instituti prognozlariga ko'ra, 2040-yilga kelib mamlakat suv yetishmasligi yuqori darajasiga ega davlatlar qatorida 29-o'rinni egallashi kutilmoqda. Shu davrga kelib



aholining 42 millionidan oshishi ehtimoli mavjud bo'lib, bu suv resurslariga bosimni yanada kuchaytiradi. Suvning kamayishi sug'oriladigan yerlar maydonining qisqarishiga, hosildorlikning pasayishiga, chorvachilik va mahsulot yetishtirish hajmining kamayishiga olib kelishi mumkin. Bu esa oziq-ovqat xavfsizligiga, iqtisodiy barqarorlikka va mintaqaviy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Milliy "yashil" iqtisodiyotning taksonomiya toifalari:

1. Suv va xom ashyolardan foydalanish samaradorligi.
2. Tuproq va havo sifatini yaxshilash.
3. Barqaror qishloq va o'rmon xo'jaligi, ekoturizm.
4. Yashil transport.
5. Energiya samaradorligini oshirish.
6. Qayta tiklanadigan energiya.
7. "Yashil" binolar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi 2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish Strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son Qarorida mazkur strategiyani amalga oshirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlari belgilangan:

1. Iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari energiya samaradorligini oshirish.
2. Energiya resurslari iste'molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish;
3. Iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash.
4. «Yashil» iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish.²

XULOSA VA TAKLIFLAR

"Yashil" iqtisodiyot uchta maqsadga erishishga yordam beradi: iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy farovonlikni saqlash hamda rivojlantirish. "Yashil" iqtisodiyot barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning samarali vositasi sifatida quyidagilarga xizmat qilishi lozim:

- ishlab chiqaruvchilarni, ekologik toza mahsulotlar va xizmatlarni eksport qiluvchilarni imtiyozli soliq rejimi, subsidiyalar, kreditlar bo'yicha past foiz stavkalari, QQSni pasaytirish va boshqa usullar orqali rag'batlantirishni ta'minlash;
- "yashil" ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan import uskunalari bojlarni kamaytirishni amalga oshirish;
- ekologik zararli subsidiyalarni qisqartirish;
- "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;
- yer, suv, o'g'it va pestitsidlardan foydalanish bo'yicha ekologik mezonlarni kuchaytirish;
- sanoat korxonalariga ekologik ruxsatnomalar berishda nazorat va shaffoflikni kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 2 декабрдаги "2030 йилгача Ўзбекистон Республикасининг «яшил» иқтисодиётга ўтишига қаратилган ислохотлар самарадорлигини ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-436 қарори. <https://lex.uz/docs/6303230>
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 25 октябрдаги «Миллий «яшил» иқтисодиёт таксонимиясини тасдиqlash тўғрисида»ги 561-сон қарори. <https://lex.uz/docs/6644013>
3. Будущее зеленого перехода в Узбекистане / ПРООН, 2023
4. Аналитический обзор «Об участии государств-участников СНГ в Парижском соглашении по климату, принятом в рамках Рамочной Конвенции ООН об изменении климата. - Москва, 2017.
5. Stern N. The Economics of Climate Change: The Stern Review. Cambridge University Press, 2006.
6. Stiglitz J. Climate Change and Economic Development. Oxford University Press, 2019.
7. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. Macmillan, 1990.
8. OECD. Green Growth Indicators. OECD Publishing, 2017.
9. Sachs J. The Age of Sustainable Development. Columbia University Press, 2015.
10. Гаипназарова З.Т. "Яшил" иш ўринларини яратиш орқали экологик барқарор иқтисодиётга адолатли ўтиш. // "Янги Ўзбекистон иқтисодиёти: устувор йўналишлар ва келажак истиқболлари" мавзусидаги Илмий-амалий конференция мақолалари тўплами. // и.ф.д., проф. Т.Ахмедовнинг умумий таҳрири остида. // Тошкент: IFMR, 2022. –Б.132-140.
11. www.wri.org

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi 2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish Strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son Qarorida // <https://lex.uz/docs/4539502>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
